

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2025
PEDAGOGIKA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

"FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya hamda geografiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
AXMADALIYEV Y.I.

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof.	ZUOGANG PENG (Xitoy)	Janubiy-g'arbiy universitet, b.f.d., prof
ZAYNOBIDDINOV S (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof	PANASYUK M (Rossiya)	Qozon federal universiteti, g.f.d., prof
A'ZAMOV A (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof	VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)	Anqara Hoji Bayram Veli universiteti fil. f.d., prof
SAGDULLAYEV Sh (O'zbekiston)	O'zR FA t.f.d., prof	SIROJIDDINOV Sh (O'zbekiston)	Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU akademigi, fil.f.d., prof
TURAYEV A. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, k-b.f.d., prof	ABADI, TOTOK WAHYU (Indonesiya)	Universitas Muhammadiyah Sidoarjo, Siyosat va xalqaro huquq.
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)	O'zRFA k.f.d., prof	SCOTT LEVI (AQSH)	Ohio State University, PhD, prof
ABDULLAEVA Z (Qirg'iziston)	OshDU k.f.n., dots	AZIYA ZHUMABAYEVA (Qozog'iston)	Abay nomidagi Qozog' milliy pedagogika universiteti
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, b.f.d., prof	SANIYA NURGALIYEVA (Turkiya)	Ataturk University
G'ULOMOV S. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, i.f.d, prof	SALTANAT ABILDINA (Qozog'iston)	E. A. Buketov nomidagi Qaragandi davlat universiteti
JUMABEKOVA B (Qozog'iston)	b.f.d., prof		

Tahririyat kengashi

PEDAGOGIKA BO'YICHA			
EGAMBERDIYEVA T.	FarDU, p.f.d., prof.	DAVLYATOVA G.	FarDU, p.f.n., dots.
XONKELDIYEV Sh.	FarDU, p.f.d., prof.	BAYDJANOV B.	FarDU, p.f.n., dots.
TOJIBOYEVA H.	O'z Res FA Pedagogika ITI p.f.d. (Dsc)	ABBASOVA N.	FarDU, p.f.f.d., dots.
QURBONOVA B.	FarDU, p.f.d. (DSc), prof	GOFUROVA N.	FarDU, p.f.f.d.
O'RINOVA N.	FarDU, p.f.n., dots.	URAIMOV S.	FarDU, p.f.f.d., dots. (DSc)

Bo'lim boshlog'i: Zokirov I.I., b.f.d.,prof.

Texnik muharrirlar: Sheraliyeva J.
Mirkarimova Sh.

Musahhihlar: Mahmudov F.
O'rinboyev I.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti: Journanal.fdu.uz

X.S.Umarxo'jayeva	
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ta'lim sohasi talabalarida ingliz tilini o'qitishda tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish usullari	117
D.A.Solixo'jayeva	
Professional ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilarni milliy qadriyatlar vositasida mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi	120
D.Aminova	
Internetda PR kommunikatsiya xususiyatlari	126
U.G'.Abdullaeva	
Ekologik ta'lim-tarbiya'ni amalga oshirishga tayyorlashning zamonaviy usullari	132
D.Y.Tashnazarov	
Sportning yunon-rim kurash turida texnik tayyorgarligini takomillashtirishda tik turgan holatdan yelkalardan oshirib tashlash harakatining samaradorligi (<i>chap tomonga bajarish asosida</i>)	135
J.G'.Obidov	
Texnika oliy o'quv yurtlarida o'quv materiallarini imitatsion-variantlik asosida o'qitishni takomillashtirish texnologiyalariga ta'sir ko'rsatuvchi didaktik manbalarni yaratish hamda zamonaviy o'quv jihozlaridan ratsional foydalanish	144
A.R.Qodirov	
Bo'lajak pedagoglarning axloqiy-estetik kompetentligini interaktiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi	151
M.A.Esonmirzayeva	
Bo'lajak pedagoglarning metakompetentligini rivojlantirish usullari va takomillashtirish yo'llari	156
N.B.Dusimbetova	
Jurnalistikaning til madaniyati va nutq kompetensiyasini shakllanish tamoyillari.....	160
G.M.Zoitova, Z.F.Arabjonova	
35-40 yoshdagi ayollarda sog'lomlashtirish mashg'ulotlarida akvafitness vositalaridan kompleks foydalanish.....	165
D.Y.Tashnazarov	
Yunon-rim kurashchilarini texnik tayyorgarligini takomillashtirishda tik turgan holatdan yelkalardan oshirib tashlash harakatining kinematik asoslarini o'rganish (<i>o'ng tomonga bajarish asosida</i>)	172
B.Q.Baratov	
Badiiy-tarixiy materiallar vositasida bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy madaniyatini rivojlantirishning ahamiyati	181
N.A.Abdullayeva	
Implementing flipped classroom method in teaching phrasal verbs	185
M.M.Yunusov	
Universitetlarda "Kimyoviy texnologiya" fanining tuzilishi, mazmuni va takomillashtirish modeli ..	189
N.M.Xodjibolayeva	
Pedagogika fanlari xamkorligi asosida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy masalalari	196



UO'K: 374:37.018.1+37.091.3

**PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA TAHSIL OLAYOTGAN
O'QUVCHILARNI MILLIY QADRIYATLAR VOSITASIDA MUSTAQIL OILAVIY HAYOTGA
TAYYORLASHGA YO'NALTIRILGAN TAJRIBA-SINOV ISHLARINI TASHKIL ETISH
METODIKASI**

**МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ ОПЫТНО-ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЙ РАБОТЫ,
НАПРАВЛЕННОЙ НА ПОДГОТОВКУ ОБУЧАЮЩИХСЯ В ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ К САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ,**

**ОПОСРЕДОВАННОЙ НАЦИОНАЛЬНЫМИ ЦЕННОСТЯМИ
THE METHODOLOGY OF ORGANIZING EXPERIMENTAL WORK AIMED AT
PREPARING STUDENTS IN PROFESSIONAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS FOR
INDEPENDENT FAMILY LIFE, MEDIATED BY NATIONAL VALUES**

Solixo'jayeva Dildora Abduraimovna 
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada kasbiy ta'lim tizimida o'quvchilarni mustaqil oilaviy hayotga milliy qadriyatlar asosida tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari o'rganildi. Ushbu tadqiqotda oila institutini mustahkamlash, ajralish darajasini kamaytirish va ma'naviy-axloqiy ta'limni rivojlantirishning ahamiyati ochib berilgan. Yoshlarni mas'uliyatli oilaviy hayotga zarur ko'nikmalar bilan ta'minlashda jamoatchilik dasturlari, huquqiy bazalar va ta'limiy strategiyalarining roli o'rganilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, amaliy mashg'ulotlar va manfaatdor tomonlar o'rtasidagi hamkorlik oilaviy hayotga tayyorgarlik dasturlarining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Аннотация

В данной статье изучены особенности подготовки учащихся системы профессионального образования к самостоятельной семейной жизни на основе национальных ценностей. В рамках данного исследования раскрыта важность укрепления института семьи, снижения уровня разводов и развития духовно-нравственного воспитания. Рассмотрена роль общественных программ, правовых основ и образовательных стратегий в обеспечении молодежи необходимыми навыками для ответственной семейной жизни. Результаты исследования показывают, что практические занятия и сотрудничество между заинтересованными сторонами играют важную роль в повышении эффективности программ подготовки к семейной жизни.

Abstract

This article examines the features of preparing students in the vocational education system for independent family life based on national values. The study highlights the importance of strengthening the institution of family, reducing the divorce rate, and developing spiritual and moral education. The role of community programs, legal frameworks, and educational strategies in equipping young people with the necessary skills for responsible family life is analyzed. The research results indicate that practical training and cooperation among stakeholders play a crucial role in enhancing the effectiveness of family life preparation programs.

Kalit so'zlar: oilaviy qadriyatlar, kasbiy ta'lim, yoshlarni tayyorlash, ma'naviy ta'lim, oila barqarorligi.

Ключевые слова: семейные ценности, профессиональное образование, подготовка молодежи, духовное воспитание, устойчивость семьи.

Key words: family values, vocational education, youth preparation, spiritual education, family stability.

KIRISH

Jamiyatda oilaning roli boshqa ijtimoiy institutlar bilan solishtirib bo'lgan darajada muhim. Oilada inson shaxsi shakllanadi va rivojlanadi, jamiyatga moslashish uchun zarur bo'lgan ijtimoiy rollar o'rganiladi. Oila inson hayotining birinchi tarbiya muassasasi bo'lib, uning onalik, otalik, qarindoshlik kabi qadriyatlarni amalga oshirishdagi o'rni beqiyosdir. Millatning asriy madaniy merosi oilaviy hayotga tayyorgarlik muammosiga doimiy e'tibor qaratishni talab etadi.

Mashhur rus psixologi V.D. Ishadrikov ta'kidlaganidek[4,] "Barqaror va mustahkam oila yaratish maktabga to'rigina tayyorgarlikdan boshlanadi". Shunday qilib, bola to'laqonli jamiyat a'zosi sifatida rivojlanishi faqat barqaror va mustahkam oila sharoitidagina amalga oshadi. Bu muhitda bolada muloqot qilish qobiliyati shakllanadi, atrof-muhit va odamlarni to'g'ri tushunish ko'nikmalari rivojlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tadqiqot doirasida professional ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan psixologlar o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi.

So'rovnoma 8ta savoldan iborat bo'lib, unda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda psixologning o'rni va psixologik tayyorgarlikning ahamiyati o'rganildi. Mazkur tadqiqotda jami 1130 nafar respondent ishtirok etdi.

Tadqiqot jarayonida Sizningcha nikohdagi muammoli munosabatlarning oldini olish va oila institutini mustahkamlashda psixologik tarbiya'ning ahamiyati qanday darajada deb bilasiz degan savolga respondentlarning katta qismi (90%) psixologik tarbiya'ning nikohdagi muammolarni hal qilish va oila institutini mustahkamlashdagi ahamiyatini tasdiqladi. Bu jamiyatda psixologik yordamga bo'lgan talabning yuqori ekanligini ko'rsatadi. Kam e'tibor beruvchi guruh (9%) qisman muhimlikni ta'kidlagan bo'lsa, 1% respondentlar uni umuman muhim emas deb hisoblaydi. Bu guruhlarni psixologik yordamning ahamiyati haqida xabardor qilish uchun qo'shimcha targ'ibot ishlari zarur. Bu jamiyatda psixologik xizmatlarning kengaytirilishi, ayniqsa, oila masalalariga yo'naltirilgan dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish dolzarb vazifa ekanligini ko'rsatadi.

Respondentlarning **Oiladagi munosabatlarni mustahkamlash uchun qanday omillarni eng muhim deb hisoblaysiz** mazmunidagi savolga berilgan javoblar oiladagi barqarorlik va mustahkamlikni ta'minlashda qaysi omillar eng muhim ekanligini tushunishga yordam berdi. O'zaro ishonch (51%) eng ko'p qayd etilgan omil sifatida, oilaviy munosabatlarni mustahkamlashning asosiy negizi ekanligini ko'rsatadi. Oilada ishonchsizlik munosabatlarning zaiflashuviga, nizolarning kelib chiqishiga olib kelishi mumkin. Tushunish va hurmat (32%) qilish jamiyatdagi an'analar va madaniy qadriyatlarga asoslangan holda, oilaning barqarorligini ta'minlash uchun muhim omil hisoblanadi. Mehr va muhabbat (17%) oilaviy munosabatlarning ilk tamal toshi sifatida e'tirof etilgan. Bu jamoada an'anaviy tarbiya va urf-odatlarining kuchli ta'sirini aks ettiradi. Qolgan 28% ishtirokchilarning umumiy mazmundagi javoblarida oilaviy munosabatlarning mustahkamligiga oid aniq takliflar va tushunchalar bildirmagan. Bu, ehtimol, mavzuga nisbatan chuqurroq bilim yoki qiziqish yetishmasligidan dalolat beradi.

Oila psixologi milliy qadriyatlarimizga tayangan holda ish olib borishi zarur degan fikrga qo'shilasizmi mazmundagi savolga respondentlarning **90% (1192 nafar)** xa deb javob bergan bo'lsa, **10% (136 nafar)** nafari yo'q javobini bergan. Ushbu yuqori ko'rsatkich oila psixologi faoliyatining milliy qadriyatlar asosida olib borilishiga bo'lgan talab juda katta ekanligini anglatadi. Respondentlarning aksariyati milliy qadriyatlarni oilaviy muammolarni hal qilishda asosiy omil deb biladi. Milliy qadriyatlar va urf-odatlar oiladagi barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Psixologik maslahatlar ushbu qadriyatlar asosida olib borilganda yanada samarali bo'ladi. Respondentlar oila psixologiyasini milliy madaniyat, urf-odat va an'analarga moslashtirishni afzal deb bilgan.

Tadqiqot jarayonida Turmush qurish arafasida turgan bo'lg'usi kelin va kuyovlarni oilaviy hayotga psixologik tayyorlash kerakmi mazmunidagi savolga respondentlarning **99% (1311 nafar)** xa javobini, **1% (17 nafar)** yo'q degan javobni bergan. Ushbu ma'lumotlar oilaviy hayotga psixologik tayyorgarlik jamiyat uchun dolzarb masala ekanligini ko'rsatdi. Ko'pchilik bu tayyorgarlik oila mustahkamligi va salbiy holatlarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega deb hisoblaydi. Ayni damda, oilaviy ziddiyatlar va ajralishlar sonining oshib borishi, ushbu masala bilan bog'liq muammolar mavjudligini bildiradi. Salbiy javob bergan 1% respondentlar ayrim shaxslar oilaviy hayot uchun maxsus tayyorgarlikni ortiqcha deb hisoblashlari mumkin degan xulosani beradi.

Yoshlarni qanday psixologik nuqtayi nazardan oilaviy hayotga tayyorlash lozim? Mazmunidagi savolga respondentlardan bir nechta variant tanlash imkoniyati berilgan bo'lib ularning **89% (1184 nafar)** ta'lim muassasalarida shaxs psixologiyasi, xarakter, muloqot,

shaxslararo munosabatlar va konfliktni hal qilish bo'yicha bilim berish zarurligini bildirgan. Bu yuqori ko'rsatkich yoshlarning oila uchun zarur asosiy ko'nikmalarni egallashini afzal bilishini ko'rsatadi. Yoshlarning shaxsiy psixologiya, muloqot va konfliktni hal qilish sohasida bilim olishga bo'lgan qiziqishi oilaviy muammolarni oldini olish uchun o'ta muhimdir. Bu orqali emotsional intellekt rivojlantiriladi. Turmush o'rtog'i bilan konstruktiv muhit yaratishga yordam beriladi. **40% (540 nafar)** jinsiy hayot psixologiyasi va psixofiziologiyasi bo'yicha ta'lim berishni muhim deb hisoblagan. Bu javoblar jamiyatda jinsiy tarbiya mavzusiga ehtiyotkorlik bilan yondashish odati saqlanib qolganini bildiradi. Ushbu soha kam yoritilgan, lekin oilaviy hayotda katta ahamiyatga ega. Yoshlarni bu borada to'g'ri ma'lumot bilan qurollantirish sog'lom jinsiy va psixofiziologik hayotni shakllantirishga yordam beradi. **34% (457 nafar)** tarbiyaviy filmlar yaratishni taklif qilgan. Yoshlarning vizual va hayotiy misollar orqali o'qitilishini afzal bilishlari ushbu yondashuvning samaradorligini aks ettiradi. Bu realistik vaziyatlarda qiyinchiliklarni ko'rsatish orqali tajriba olish imkonini beradi. Boshqa fikrlar kam foizni tashkil etgan bo'lsa-da, ular alohida e'tibor qaratish lozim bo'lgan o'ziga xos yondashuvlar yoki individual ehtiyojlarni ifodalashi mumkin.

Ajralish uchun xavf guruhiga kiritilgan eng keng tarqalgan ijtimoiy-psixologik omillar (bir nechta variant tanlash imkoniyati berilgan) nima degan savolga respondentlardan **Uchinchi shaxslarning aralashuvi (756 nafar)** degan javob bo'lgan. Bu omil respondentlar orasida eng yuqori ko'rsatkichni qayd etishiga sabab, oilaviy hayotga tashqi shaxslarning (qarindoshlar, do'stlar yoki boshqa yaqinlar) aralashuvi ajralishlar uchun xavf tug'dirishini bildirgan. **Qaynona-kelin munosabatlari (704 nafar)** bu muammo ayniqsa, o'zbek oilalariga xos bo'lib, qaynona va kelin o'rtasidagi ziddiyat oilaviy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Odatda bu munosabatlar turmush o'rtog'ining qaysi tomonni qo'llab-quvvatlashiga bog'liq bo'ladi, bu esa qo'shimcha stress va tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi. **Ishonchning yo'qligi (460 nafar)** oilaviy munosabatlarda ishonchning yo'qligi ajralish xavfining muhim sabablaridan biri sifatida tilga olingan. Bu omil odatda noto'g'ri muloqot, rashk, sir saqlash yoki yolg'on bilan bog'liq. **Giyohvandlik va alkogolizm (451 nafar)** turmush o'rtoqlardan birining giyohvandlik yoki alkogolizm bilan og'rihi oilaviy munosabatlarga katta zarar yetkazadi. Bunday holatlarda moddiy va psixologik muammolar kuchayib, oilaning boshqa a'zolariga ham salbiy ta'sir o'tkazadi. **Zo'ravonlik va boshqa sabablar (450 nafar)** Oiladagi zo'ravonlik (jismoniy, ruhiy yoki iqtisodiy) ajralish sabablarining muhim qismi sifatida e'tirof etilgan. Bu omil nafaqat turmush o'rtoqlar, balki bolalar uchun ham salbiy oqibatlariga olib keladi. **Moliyaviy va maishiy muammolar (398 nafar)** moliyaviy barqarorlikning yo'qligi yoki maishiy hayotdagi qiyinchiliklar oilaviy muhitga zarar yetkazadi. Bu omil, ayniqsa, ish topish qiyin bo'lgan hududlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tahlil shuni ko'rsatadiki, ajralishlar xavfini kamaytirish uchun jamiyatda oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, tashqi aralashuvlarni cheklash va oilaviy muammolarning turli jihatlari hal qilish bo'yicha kompleks yondashuv zarur. Bu, o'z navbatida, barqaror va mustahkam oilalar sonini oshirishga yordam beradi.

Tadqiqot jarayonida Bugungi kunda ajralishga olib keluvchi eng ko'p uchraydigan psixologik sabablarni ko'rsating (bir nechta variant tanlash imkoniyati berilgan) mazmunidagi savolga respondentlardan kelgan asosiy javoblar **Sevgi tuyg'ularining yo'qligi yoki yo'qolishi, xiyonat (602 nafar)** ekanligi ko'rsatilgan. Nikohdagi sevgi va ishonchning yo'qolishi yoki buzilishi (muhabbatning tugashi yoki xiyonat) ajralishlarning eng keng tarqalgan sababi sifatida tilga olingan. Xiyonat munosabatlardagi ishonchni butunlay yo'qotib, hissiy va psixologik jarohatlarga olib keladi. Sevgi tuyg'ularining yo'qolishi ko'pincha muloqotning zaifligi va hissiy yaqinlikning pasayishi bilan bog'liq. **Xarakterlarning nomuvofiqligi (596 nafar)** (mos kelmasligi) oilaviy muammolarning keng tarqalgan sababi bo'lib, ko'pincha turmush qurishdan oldingi davrda bir-birining shaxsiyati va odatlarini to'g'ri tushunmaslikdan kelib chiqadi. Bu omil birgalikda qaror qabul qilishdagi muammolar, ziddiyatlar va tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi. **Nikoh majburiyatlariga beparvo munosabat (590 nafar)** e'tiborsiz qoldirish mas'uliyatni his qilmaslik va sherikning ehtiyojlariga befarqlik ajralishning muhim sabablari sifatida namoyon bo'lgan. Bu holat sheriklar o'rtasida ishonch va hurmatni pasaytiradi. **Umumiy qarashlar va manfaatlarining yo'qligi, diniy farqlar (422 nafar)** turmush o'rtoqlar o'rtasidagi umumiy qarash va manfaatlarining yo'qligi munosabatlarning zaiflashishiga olib keladi. Ayniqsa, diniy farqlar munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatib, kelishmovchiliklarni kuchaytirishi mumkin. **Umumiy**

manfaatlar va hissiy yaqinlikning yo'qligi (393 nafar) munosabatlarning bir tomonlama bo'lishiga olib keladi, bu esa uzoq muddatda ajralishga sabab bo'lishi mumkin. Bunday holatlar er-xotin o'rtasidagi muloqotning pasayishiga olib keladi. **Ko'pxotinlik (388 nafar)** ayniqsa, an'anaviy yoki diniy jamiyatlarda munozarali masala bo'lib, ajralish sabablaridan biri sifatida qayd etilgan. Bu munosabatlardagi tengsizlik, rashk va ishonchsizlikni kuchaytiradi. Buning oldini olish uchun bo'lg'usi er-xotinlar uchun xarakter mosligi, munosabatlar boshqaruvi va sevgi haqida treninglar tashkil qilish, nikoh majburiyatlari va mas'uliyatlari bo'yicha tushuntirish ishlari olib borish zarur.

Ota-onalar ajrimi farzandlar ruhiyatiga qanday ta'sir qiladi mazmunidagi savolga Salbiy ta'sir (73%) natijani ko'rsatgan aksariyat respondentlar ota-onalar ajrimi farzandlar ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi deb hisoblagan. Bu fikrning asoslari farzandlarda sevgi va xavfsizlik hissining yo'qolishiga, ota-onalar o'rtasidagi ziddiyatlar farzandlarning stress darajasini oshishiga olib kelishini bildirgan. Ota-onalarning alohida yashashi farzandlarning o'z shaxsiy mas'uliyatlarini anglashiga to'sqinlik qiladi degan qarashni anglatadi. **Ajrim sababiga bog'liq (20%)** degan fikrlarni bildirgan respondentlar farzandlar ruhiyatiga ta'sir darajasi ota-onalarning ajrim sabablariga bog'liq ekanligini qayd etgan. Zo'ravonlik va nizolarga to'la oilalarda ajrim farzandlar uchun sog'lom muhit yaratishi mumkin. Ota-onalar orasidagi madaniy va hurmatga asoslangan ajrim farzandlarga nisbatan kamroq salbiy ta'sir ko'rsatadi. **Ijobiy ta'sir (2%)** bildirgan respondentlar ajrimning ba'zan farzandlar uchun foydali bo'lishi mumkinligini bildirgan. Bunday holatlarning sabablari farzandlar zo'ravonlik yoki toksik muhitdan xalos bo'ladi. Rivojlanish uchun sog'lom va xavfsiz muhit yaratiladi. **Umumiy javoblar** ba'zi respondentlar bu masalada aniq pozitsiya bildirmagan. Bu esa ota-onalar ajrimi mavzusining jamiyatda murakkab va ko'p qirrali masala ekanligini ko'rsatadi. Ota-onalar ajrim jarayonida va undan keyin farzandlarga maxsus psixologik yordam ko'rsatish lozim. Farzandlarga ajrim sababini tushuntirib berish va ularni emotsional qo'llab-quvvatlash muhim. So'rov natijalari shuni ko'rsatadiki, ota-onalar ajrimi, ko'p hollarda, farzandlarning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq, ajrimning ta'siri uning sabablariga va jarayonning qanday boshqarilishiga bog'liq. Ajrimning salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun jamiyatda psixologik yordam va maslahat xizmatlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Respondentlarning Oila institutini mustahkamlash uchun qanday dastur, amaliy chora-tadbirlarni joriy etilish maqsadga muvofiq deb o'ylaysiz mazmunidagi savolga Ma'naviy-ma'rifiy dasturlar va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash (7%) orqali jamiyatda oilaviy qadriyatlarni targ'ib qilish muhim ahamiyatga ega degan fikrni ilgari surgan. Ushbu dasturlar oila institutining axloqiy va ma'naviy poydevorini mustahkamlashga qaratilgan. **Maxsus chora-tadbirlar va tarqatma materiallar (16%)** ishlab chiqish, ularni keng miqyosda qo'llash masalasi respondentlar orasida sezilarli qiziqish uyg'otgan. Ushbu usul oilaviy hayotga oid muhim bilimlarni oddiy va tushunarli shaklda yetkazish uchun samarali bo'lishi mumkin. **Ta'lim tizimida psixologiya fanlari va maxsus kurslar (25%)** ni joriy etish fikrini respondentlarning eng katta guruhi taklif qilgan. Bu yondashuv yosh avlodni oilaviy hayot uchun tayyorlash va ular orasida oila qadriyatlarini rivojlantirishga qaratilganligini belgilaydi. **Mahalla fuqarolar yig'inlarida psixolog shtati joriy etish (4%)** oilaviy muammolarni joyida aniqlash va bartaraf etishda muhim rol o'ynashini belgilagan. **Nikohdan o'tuvchi shaxslarni psixologik suhbatdan o'tkazish (8%)** fikri orqali FXDYO bo'limlarida nikohdan o'tuvchi shaxslarni psixologik suhbatdan o'tkazish yordamida oilaviy hayotga tayyorlash va xavf omillarini aniqlash mumkinligini bildirgan. **"Psixologik markazlar" tashkil qilish (6%)** Ijtimoiy-ma'naviy va psixologik qo'llab-quvvatlash markazlari oilaviy hayotdagi muammolarni bartaraf etishda keng imkon beradi. **OAV orqali targ'iboti (25%)** yordamida oilaviy qadriyatlar, sog'lom munosabatlar va muammolarni hal qilish usullarini targ'ib qilish katta auditoriyaga ta'sir ko'rsatishi bildirgan. **Diniy va dunyoviy bilimlarni keng o'rgatish (3%)** orqali oilaviy hayotda mas'uliyat va hurmat muhimligini targ'ib qilishni bildirgan. **Yosh kelin-kuyovlar va qaynonalar maktabi (3%)** ni tashkil etish oilaviy hayotdagi murakkabliklarni boshqarish bo'yicha tajriba almashish imkonini berishini belgilagan. **Bo'lajak nikoh quruvchilar uchun kurslar (2%)**ni joriy etish orqali yigitlarni oilaga tayyorlash, mas'uliyatni tushuntirish va zarur ko'nikmalarni shakllantirishini bildirgan. **Ilmiy tadqiqotlar o'tkazish va natijalarni amaliyotga tatbiq etish**

(1%) fikri orqali oila institutini mustahkamlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish va ularni amaliyotga tatbiq qilish zarurligini bildirgan.


NATIJALAR VA MUXOKAMA

Respublikada 9 748 443 ta oila bo'lib, ularning 3 249 480, ya'ni 33 foizi yosh oilalarni tashkil qiladi[5].

2023-yilda mamlakatda 283 788 ta nikoh qayd etilgan bo'lib, ularning 243 148 tasi, ya'ni 86 foizi 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarni tashkil qiladi.

2023-yilda **49 198** ta nikohdan ajralganlik qayd etilib, bu 2022-yilga nisbatan **969** taga, ya'ni 1,8 promillega oshgan. O'tkan yilning shu davriga nisbatan eng yuqori ko'rsatkich Namangan viloyatida 535 taga, Andijon viloyatida 466 taga, Surxondaryo viloyatida 237 taga, Xorazm viloyatida 210 taga, Farg'ona viloyatida 311 taga va Toshkent shahrida 233 taga oshgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PQ-300-son[1] qarori amaliy tadbirlar rejasining 21.1-bandida FHDYO organlarida "Yosh kelin-kuyovlar maktabi" faoliyatini olib borish va ularning maxsus kurslardan to'liq o'tishini ta'minlash vazifasi yuklatilgan.



Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, yoshlar orasida nikohdan ajralganlik soni ortib bormoqda, bu o'z navbatida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash ishlari samaradorligini va sifatini oshirishni talab qiladi.

Oila va xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan 2023-yil davomida joylarda 87 723 nafar nikohlanuvchi shaxslar oilaga tayyorlash o'quv kurslarida o'qitildi, lekin bu talabga javob beradi deb bo'lmaydi. Vaholanki, 2023-yilda qayd etilgan nikohlarning 86 foizi 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarni tashkil qilgan. O'qitilganlar bu ko'rsatkichning atigi 36 foizini tashkil qilmoqda.

XULOSA

Olingan natijalari shuni ko'rsatadiki, oila institutini mustahkamlash bo'yicha respondentlar tomonidan ilgari surilgan takliflar oilaviy qadriyatlarni rivojlantirish, yoshlarga ta'lim berish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash masalalarini qamrab oladi. Ularni amaliyotga tatbiq etish orqali jamiyatda sog'lom oilaviy muhitni shakllantirishga erishish mumkin. Bu, o'z navbatida, jamiyat barqarorligi va rivojlanishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston-2023" strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-300 sonli Qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida 2024-yil 5-iyun kuni o'tkazilgan 15-soonli yig'ilish bayon
3. G.B. Shoumarov. Oila psixologiyasi: Darslik. – Toshkent: "Sharq", 2014, 272-bet.
4. V.M. Karimova. Oila psixologiyasi: Darslik. Pedagogika universitetlari talabalari uchun. – Toshkent: "Fan va texnologiyalar", 2008, 152-bet.
5. M. Karimova. Yosh qizlarning oilaviy hayotni qabul qilishlari va buning ta'siri haqida nazariy tahlil. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti jurnali, 2022.

PEDAGOGIKA

6. M. Karimova. Kasbiy ta'limda o'quvchi qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash va ularda sog'lom turmush tarzini shakllantirishning psixologik asoslari. Ko'p tarmoqli ilmiy jurnal Educational Research in Universal Sciences. ISSN: 2181-3515, 369-373-betlar.

5. K.V. Adukina. "Yosh avlodni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashda oila va jamoatchilik hamkorligi". Educational Research in Universal Sciences ISSN: 2181-3515, Ko'p tarmoqli ilmiy jurnal. May, 2023, 370-bet.

6. K.G'ofurova. Yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashda oila va jamoat hamkorligi. "Maxsus pedagogika va maktabgacha ta'limning dolzarb muammolari: muammolar, yechimlar va rivojlanish istiqbollari" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2024-yil 25-aprel, 193-bet.

7. D.A. Soliho'jayeva. Milliy qadriyatlar orqali talabalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning o'ziga xos jihatlari. "Science and Innovation" xalqaro ilmiy jurnali, 2-tom, 11-son, 2023-yil noyabr